

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI SENATI KENGASHINING
QARORI**

**2030-YILGA QADAR O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA GENDER TENGLIKKA
ERISHISH STRATEGIYASINING MAQSADLI KO‘RSATKICHLARINI TASDIQLASH
TO‘G‘RISIDA**

O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash, jamiyat hayotining barcha sohalarida gender tenglik tamoyillarini qaror toptirish va mazkur sohada davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirishning muhim dasturiy asosi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Xalqaro standartlarga mos milliy qonunchilik bazasi shakllantirilib, sohaga oid 110 dan ziyod normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Xususan, davlat tomonidan xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat hayotining barcha sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlash majburiyati mustahkamlanib, xotin-qizlarni mehnat sohasida kamsitishning oldini olishga qaratilgan qo‘shimcha huquqiy kafolatlar Konstitutsiya darajasida belgilab qo‘yildi.

Mehnat munosabatlarida teng imkoniyatlarni ta’minlash maqsadida muayyan soha va kasb turlarida xotin-qizlar mehnatidan foydalanishga qo‘yilgan cheklovlar bekor qilindi.

Shu bilan birga, jins bo‘yicha kamsitishni targ‘ib qilganlik, xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligini ochiqdan ochiq inkor etganlik, shu mazmundagi g‘oyalar va chaqiriqlarni tarqatganlik uchun ma’muriy javobgarlik belgilandi.

Siyosiy hayotda xotin-qizlar ishtirokini kengaytirish maqsadida siyosiy partiyalar tomonidan deputatlikka ko‘rsatiladigan nomzodlarning kamida 40 foizini ayollar tashkil etishi haqidagi norma qonunchilikda mustahkamlandi.

Shuningdek, xotin-qizlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish maqsadida bolani parvarishlash ta’tilida bo‘lgan davrni ish stajiga qo‘shib hisoblashning maksimal muddati 3 yildan 6 yilgacha oshirildi.

Yagona yondashuv asosida vazirlik va idoralar faoliyatini samarali tashkil etish va muvofiqlashtirish maqsadida Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo‘yicha respublika komissiyasi tashkil etildi.

Davlat organlarida gender tenglikni ta’minlash masalalari bo‘yicha Maslahat kengashlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlarni gender ekspertizasidan o‘tkazish, gender statistikasini yuritish, gender audit hamda genderga yo‘naltirilgan budjetlashtirish kabi zamonaviy mexanizmlar joriy etildi.

Amalga oshirilgan islohotlar xalqaro reyting va indekslarda ham o‘z aksini topmoqda. Jumladan, 2026-yilda Jahon bankining “Ayol, biznes va qonun” indeksida O‘zbekiston 190 ta davlat orasida 48-o‘rinni egalladi, Gender tenglik va boshqaruv indeksida 51 pog‘onaga yuqorilab, 52-o‘ringa ko‘tarildi. Parlamentlararo ittifoqning “Parlamentdagi ayollar” reytingida esa mamlakatimiz 193 ta davlat orasida 35-o‘rinni qayd etdi.

Shu bilan birga, jahonda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va demografik o‘zgarishlar, raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi, mehnat bozorida yuzaga kelayotgan yangi tendensiyalar hamda gender tenglik sohasidagi xalqaro standart va yondashuvlarning takomillashib borishi strategiyada belgilangan maqsadlarga erishish darajasini baholashning aniq, o‘lchanadigan va zamonaviy ko‘rsatkichlar tizimini shakllantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiya (CEDAW) va uning monitoring organi tavsiyalarida ham gender tenglik sohasidagi davlat siyosati samaradorligini o‘lchash mumkin bo‘lgan va taqqoslanadigan ko‘rsatkichlar asosida baholash muhimligi qayd etilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom

ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-21-sonli Farmonida 2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini qayta ko‘rib chiqish vazifasi belgilangan.

Mazkur vazifalardan kelib chiqib, davlat boshqaruvida xotin-qizlar ishtirokini kengaytirish, ularning iqtisodiy faolligi va bandligini oshirish, ilm-fan, innovatsiyalar, raqamli texnologiyalar va sport sohalaridagi ishtirokini rag‘batlantirish, genderga yo‘naltirilgan budjetlashtirish amaliyotini kengaytirish hamda fuqarolik jamiyati institutlarining rolini kuchaytirishga qaratilgan ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlarni belgilash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Strategiyani amalga oshirish jarayonida to‘plangan tajriba, erishilgan natijalar va mavjud muammolarni hisobga olgan holda, gender tenglikka erishish bo‘yicha ustuvor maqsadlarning bajarilishini baholash imkonini beruvchi maqsadli ko‘rsatkichlarni belgilash hamda ularni hozirgi zamon talablariga muvofiq takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Kengashi qaror qiladi:

1. 2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasining maqsadli ko‘rsatkichlari (bundan buyon matnda Maqsadli ko‘rsatkichlar deb yuritiladi) 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 28-maydagi SQ-297-IV-sonli qaroriga 2-ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi:

ikki oy muddatda Milliy statistika qo‘mitasi bilan birgalikda Maqsadli ko‘rsatkichlar bo‘yicha ma‘lumotlarni shakllantirish va taqdim etish masalalari yuzasidan vazirlik va idoralarga uslubiy ko‘mak ko‘rsatsin;

manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda Maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar va erishilgan natijalar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni xalqaro tashkilotlarga, reyting va indeks larni yurituvchi tashkilotlarga muntazam taqdim etib borsin;

Adliya vazirligi bilan birgalikda ushbu Qarorning mazmun-mohiyati va ahamiyati yuzasidan aholi o‘rtasida keng ko‘lamli huquqiy targ‘ibot-tushuntirish ishlarini tashkil etsin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi Maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan yilida kamida ikki marta mas‘ul vazirlik va idoralarning axborotlarini eshitib, tanqidiy muhokama qilib borsin.

5. Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari Maqsadli ko‘rsatkichlarning bajarilishi holati to‘g‘risida har chorakda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatiga axborot kirit sin.

6. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari ikki oy muddatda Maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish bo‘yicha hududiy choralarni belgilasin va ularning bajarilishini muntazam monitoring qilib borsin.

7. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi Maqsadli ko‘rsatkichlarning bajarilishi to‘g‘risidagi yangilangan ma‘lumotlarni har yili kamida ikki marta gender.stat.uz axborot platformasiga joylashtirish choralarini ko‘rsin.

8. O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi hamda O‘zbekiston Milliy media birlashmasiga Maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni keng yoritib borish tavsiya etilsin.

9. Mazkur Qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi raisi O. Kozixonova zimmasiga yuklansin.

10. Mazkur Qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Raisi T. NARBAYEVA

Toshkent sh.,
2026-yil 26-may,
KQ-346/1-V-son

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2026-yil 26-maydagi KQ-346/1-V-sonli
qaroriga
1-ILOVA

**2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasining
MAQSADLI KO‘RSATKICHLARI**

T/r	Amaldagi ko‘rsatkichlar nomi	2026- yil	2027- yil	2028- yil	2029- yil	2030- yil	Mas’ullar
1.	Siyosiy partiyalarda xotin-qizlarning ulushi (foizda)	49	49,2	49,5	50	50	Siyosiy partiyalarning markaziy kengashlari
2.	Siyosiy partiyalarning rahbarlik lavozimlarida xotin-qizlarning ulushi (foizda)	40	41	41,5	42	42,5	Siyosiy partiyalarning markaziy kengashlari
3.	Vazir va vazirga tenglashtirilgan lavozimlarda xotin-qizlar ulushi (sonda)	2	3	4	5	6	Vazirlar Mahkamasi
4.	Mahalliy ijroiya hokimiyati organlarida rahbarlik (hokimlar) lavozimidagi xotin-qizlar ulushi (sonda)	6	6	7	7	8	
5.	Boshqaruv lavozimlarida ishlovchi xotin-qizlar ulushi (foizda)	30,2	31	32	33	35	Vazirlar Mahkamasi, Boshqaruv samaradorligi agentligi, Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi, Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi, vazirlik va idoralar
6.	Davlat ishtirokidagi korxonalarning kuzatuv kengashlari tarkibida xotin-qizlar ulushi (foizda)	7	7,5	8	8,5	9	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi, Vazirlik va idoralar, Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo‘yicha respublika komissiyasi

7.	Milliy kadrlar zaxirasidagi xotin-qizlar ulushi (foizda)	27	30	35	37	40	Boshqaruv samaradorligi agentligi, Vazirlik va idoralar, Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi
8.	Milliy kadrlar zaxirasidagi xotin-qizlardan rahbarlik lavozimiga tayinlanganlar ulushi (foizda)	10	11	13	15	22	Vazirlar Mahkamasi, Boshqaruv samaradorligi agentligi, Vazirlik va idoralar
9.	Sudyalar orasida xotin-qizlar ulushi (foizda)	15,4	16	19	25	30	Sudyalar oliy kengashi, Oliy sud
10.	Yetakchi xotin-qizlarni tayyorlash bo'yicha amalga oshirilgan dasturlar soni	2	3	3	4	4	Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi, Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi
11.	Davlat boshqaruvi akademiyasining o'quv dasturlarini tugatgan xotin-qizlar ulushi (foizda)	32	33	34	35	36	Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi, Boshqaruv samaradorligi agentligi, Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi
12.	O'zbekistonning chet mamlakatlardagi elchilari orasida xotin-qizlarning ulushi (sonda)	1	1	2	2	2	Tashqi ishlar vazirligi
13.	Shaharlarda ta'lim olishi lozim bo'lgan imkoniyati cheklangan qizlarning umumiy sonidan maktab ta'limiga qamrab olingan ushbu toifadagi qizlar ulushi (foizda)	81	82	82,5	83	84	Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi
14.	Shaharlarda ta'lim olishi lozim bo'lgan imkoniyati cheklangan o'g'il bolalarning umumiy sonidan maktab ta'limiga qamrab olingan	82	82,5	83	84	84,5	

	shu toifadagi o'g'il bolalar ulushi (foizda)						
15.	Qishloqlarda ta'lim olishi lozim bo'lgan imkoniyati cheklangan qizlarning umumiy sonidan maktab ta'limiga qamrab olingan shu toifadagi qizlar ulushi (foizda)	82	83	83,5	84	85	
16.	Qishloqlarda ta'lim olishi lozim bo'lgan imkoniyati cheklangan o'g'il bolalarning umumiy sonidan maktab ta'limiga qamrab olingan shu toifadagi o'g'il bolalar ulushi (foizda)	80	81	81,5	82	83,5	
17.	Ilmiy, muhandislik, ishlab chiqarish va qurilish sohalarida bitiruvchilari orasida xotin-qizlar ulushi (foizda)	8,7	8,9	10	11	12	Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi
18.	Xotin-qizlarning ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasidagi loyihalarda ishtiroki (foizda)	22	25	27	28	30	Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi
19.	Ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida moliyalashtirilgan loyihalarda olina ayollar rahbarligidagi ilmiy loyihalarning ulushi (foizda)	25	28	32	36	40	Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi,
20.	"InnoX" biznes-inkubator dasturi doirasida o'qitilgan startapchi xotin-qizlar soni	90	110	140	160	200	Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi
21.	Xorijiy ilmiy va oliy ta'lim tashkilotlariga ilmiy stajirovkaga yuborilgan xotin-qizlar ulushi (jami ilmiy stajirovkaga yuborilganlar soniga nisbatan)	23	25	27	30	32	Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi
22.	1 — 4-sinflarda bolalarda o'qish va matematikani o'zlashtirish darajasi (foizda)	98	99	99,3	99,5	100	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi
23.	5 — 9-sinflarda o'quvchilarda adabiyot va matematikani o'zlashtirish darajasi (foizda)	97	97,5	98	99	99,2	
24.	Umumiy o'rta ta'lim sohasidagi o'qituvchilar orasida xotin-qizlar ulushi (foizda)	70	69	68	67	66	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Milliy statistika qo'mitasi
25.	Umumiy o'rta ta'lim sohasidagi o'qituvchilar orasida erkaklar ulushi (foizda)	30	31	32	33	34	
26.	Kasbiy, professional ta'lim sohasidagi o'qituvchilar orasida xotin-qizlar ulushi (foizda)	53	52,5	52	51,5	51	Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi, Milliy statistika qo'mitasi
27.	Kasbiy, professional ta'lim sohasidagi o'qituvchilar orasida erkaklar ulushi (foizda)	47	47,5	48	48,5	49	

28.	Oliy ta'lim sohasidagi o'qituvchilar orasida xotin-qizlar ulushi (foizda)	43	43,5	44	44,5	46	
29.	Oliy ta'lim sohasidagi o'qituvchilar orasida erkaklar ulushi (foizda)	57	56,5	56	55,5	55	
30.	Nodavlat ta'lim muassasalaridagi o'qituvchilar orasida xotin-qizlar ulushi (foizda)	73	72	71	70	69	Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Milliy statistika qo'mitasi
31.	Nodavlat ta'lim muassasalaridagi o'qituvchilar orasida erkaklar ulushi (foizda)	27	28	30	31	32	
32.	Falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga ega ayollar soni	5182	5200	5250	5300	5400	Oliy attestatsiya komissiyasi, Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi, Fanlar akademiyasi, tasarrufida OTM va ITM mavjud bo'lgan vazirlik va idoralar
33.	Falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga ega erkaklar soni	9732	9800	9850	9900	10000	
34.	Fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga ega ayollar soni	783	788	820	980	1000	
35.	Fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga ega erkaklar soni	1 974	2050	2100	2150	2300	
36.	Fertil yoshdagi ayollarni zamonaviy kontratseptiv vositalar bilan qamrab olish darajasi (foizda)	55	55,5	56	56,5	57	Sog'liqni saqlash vazirligi
37.	Ommaviy sportga jalb qilingan xotin-qizlar ulushi (foizda)	40	41	42	44	45	Sport vazirligi
38.	Trenerlar orasida xotin-qizlar ulushi (foizda)	22	23	24	25	26	Sport vazirligi, sport federatsiyalari, Olimpiya va paralimpiya qo'mitalari
39.	Professional sport bilan shug'ullanuvchilar orasida xotin-qizlar ulushi (foizda)	38	38,5	39	39,5	40	Sport vazirligi, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, sport federatsiyalari
40.	100 000 nafar xotin-qizlar orasida OIV infeksiyasi yuqgan ayollar intensiv ko'rsatkichi	6,4	6,3	6	5,8	5,5	Sog'liqni saqlash vazirligi, Respublika OITSGa qarshi kurash markazi
41.	100 000 nafar o'g'il bolalar (erkaklar) orasida OIV infeksiyasi yuqgan erkaklar intensiv ko'rsatkichi yuqganlar soni	11,2	11	10,5	10	9	
42.	Retrovirus terapiyadan foydalanayotgan OIV infeksiyali ayollar (foizda)	91	91,7	92	93	94	
43.	Retrovirus terapiyadan foydalanayotgan OIV infeksiyali erkaklar (foizda)	86	87	88	89	90	

44.	Gender jihatlarni hisobga olingan holda ijtimoiy sohadagi ilmiy tadqiqotlar soni (foizda)	45	46	48	50	51	Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi, Oliy attestatsiya komissiyasi, Fanlar akademiyasi, tasarrufida OTM va ITM mavjud bo'lgan vazirlik va idoralar
45.	Yuridik shaxs tashkil etib, unga rahbarlik qilayotgan xotin-qizlar ulushi (foizda)	13	13,5	14	14,5	15	O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi
46.	Respublika bo'yicha xotin-qizlarning iqtisodiy faolligi (foizda)	66	67	68	69	70	Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Migratsiya agentligi, Milliy statistika qo'mitasi
47.	Qishloq joylaridagi mahsulot ishlab chiqaruvchi ayollar ulushi (foizda)	15	15,5	16	18	20	Qishloq xo'jaligi vazirligi
48.	Agrosanoat yo'nalishi bo'yicha malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarini tamomlagan xotin-qizlar ulushi (foizda)	20	25	27	29	30	Qishloq xo'jaligi vazirligi
49.	Shaxsiy yeriga (uy-joyiga) ega bo'lgan aholi orasida xotin-qizlarning ulushi (foizda)	28,0	28,7	29	30	31	Kadastr agentligi
50.	Shaxsiy yeriga (uy-joyiga) ega bo'lgan aholi orasida erkaklarning ulushi (foizda)	72	71,3	71	70	69	Kadastr agentligi
51.	Yakka tartibdagi tadbirkorlar orasida xotin-qizlar ulushi (foizda)	43	44	45	46	47	Soliq qo'mitasi, Savdo-sanoat palatasi, Davlat xizmatlari agentligi
52.	Kiberxavfsizlik va AI sohasida tahsil olgan xotin-qizlar ulushi (foizda)	35	40	42	43	45	Raqamli texnologiyalar vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi
53.	Rasman ishsiz deb hisoblanuvchi xotin-qizlarning ulushi (foizda)	6,5	6,3	6,1	6	5,8	Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Milliy statistika qo'mitasi
54.	Rasman ishsiz deb hisoblanuvchi erkaklarning ulushi (foizda)	4	3,7	3,5	3	2,8	
55.	Erkaklar va ayollar mehnatiga haq to'lashdagi farq (foizda)	29	28,5	28	27,5	27	Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi,

							Milliy statistika qo‘mitasi
56.	Genderga budjetlashtirishni qo‘llagan vazirlik va idoralar ulushi (sonda)	7	7	10	12	15	Iqtisodiyot va moliya vazirligi
57.	Xotin-qizlar, gender tenglik bo‘yicha fuqarolik jamiyati tashkilotlariga ajratilgan grantlar soni	20	22	24	25	26	Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi
58.	OAVda chop etilgan oilaviy munosabatlarda xotin-qizlar va erkaklarning o‘rnini oshirishga qaratilgan materiallar soni	1190	1480	2000	2500	3500	Ommaviy axborot vositalari uchun kontent tayyorlash markazi, O‘zA, MTRK, Milliy media birlashmasi

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2026-yil 26-maydagi KQ-346/1-V-sonli
qaroriga
2-ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 28-maydagi SQ-297-IV-sonli
qaroriga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 28-maydagi “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida”gi SQ-297-IV-sonli **Qarori** quyidagi o‘zgartirishlar kiritilsin:

1) 1-bandi:

uchinchi xatboshisidagi “2-ilovaga” degan so‘zlar “2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin” degan so‘z bilan almashtirilsin;

to‘rtinchi xatboshisi chiqarib tashlansin;

2) 3-bandining **beshinchi xatboshisidagi** “hamda Maqsadli ko‘rsatkichlar” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

3) 4-bandining **ikkinchi xatboshisidagi** “hamda Maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish” degan so‘zlar chiqarib tashlansin.